Oliy badiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni	875
<i>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</i>	
Kasb-hunar maktablarida fizika fanini steam integratsiyasi asosida o'qitishning nazariy-didaktik asoslari ..	878
<i>Matamoxunov Yorkin Abduraimjanovich, Soliyeva Mubinabonu Zokirjon qizi</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida olib boriladigan pedagogik faoliyat imkoniyatlari	885
<i>Abidova Nilufar Zakirovna</i>	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish: pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar.....	888
Ahmedova Lola Abdivasi qizi	
Aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini shakllantirishning asosiy komponentlari va samarali omillari.....	893
Anvarova Dilfuza Akramjanovna	
O'quv topshiriqlari orqali 6-sinf o'quvchilarining pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari.....	896
Ashirboyeva Nafisa Aminboyevna	
Talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini takomillashtirish va uning amaliy ahamiyati.....	900
Ergasheva Maftunaxon Avazbekovna	
Talabalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida reflektiv tafakkurni rivojlantirish	904
Ergasheva Nigora Dilshodjon qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	907
Isabekova Dilafruz Shermirzayevna, Gazibekova Gulavza Ergashovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslari.....	913
Murodov Akmal Djayliboyevich	
Maktabgacha ta'lim yoshdagi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning estetik muomala madaniyatini tarbiyalash.....	917
Po'latova Parida	
Fizika fanini o'qitishda raqamli ta'lim vositalarining samaradorligi.....	920
Saparova Gulmira Baxtiyorovna	
Rus tilini o'qitishda an'anaviy va audiovizual usullarning qiyosiy tahlili	923
Umarov Aziz Avazovich	
An Analysis of The Importance of Teaching English at the Primary Level.....	927
Vasila Almetova Sunnatullayevna	
Muammoli ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash.....	931
Adizova Nodira Baxtiyorovna	
"Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning ilmiy-pedagogik yondashuvlari	936
Akmaljon Xushvaqto'v	
Iqtidorli talabalar bilan ishlash pedagogik muammolari	939
Delov To'liqin Erkinovich	
Rinolaliya nutq nuqsonining anatomik jihatdan kelib chiqishi	945
Kabirova Zarnigor Raxmonjon qizi	
Methodology for Teaching Modal Verbs in English Lessons	949
Kholnazarova Vazira Bozor qizi	
The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency	953
Kosimov Sunnat Ravshan ugli	
Disability Terminology in Uzbek: Etymological Evolution and Future Trends	957
Kuchkarova Xurshida	
Bo'lajak muhandislarni grafik dasturlar yordamida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish (muhandislik va kompyuter grafikasi fani misolida)	964
Madaminov Javlonbek Zafarjonovich	
Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda interaktiv darsliklarning pedagogik imkoniyatlari	968
Mirzaakbarov Dilshod Dovlatboyevich	
Sog'lom turmush tarzi – jismoniy madaniyati sohibi sifatida jismoniy mashqlar komplekslarini tuzish va bajarishda amal qilinadigan qoidalar	971
Musayev Zarifjon Tursunaliyevich	
Bo'lajak defektologlarning pedagogik mas'uliyatini oshirish	974
Nodira Mirboboyeva	
Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish modeli	977
Odamboyeva Mehribon Norimon qizi	
O'quvchini muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni.....	981
Qurbanova O'g'iloy Axrorovna	



Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning afzalliklari	985
Rejabboyeva Muxarram Odiljon qizi	
Pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish samaradorligi va rivojlantirish yo'nalishlari	989
Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li	
Dizatriya nutq kamchiligini bartaraf etishda muassasa, logoped va oilaning hamkorligi	992
Shermatova Yukut Sabirovna	
Kulolchilik va an'anaviy o'yinchoqlarni o'quvchilar kasb tanlash jarayonida qo'llash metodikasi	995
Soliyeva Diyora Bobur qizi	
O'zbekistonda inkluziv ta'lim va uning me'yoriy-huquqiy asoslari	998
Temirov Nabijon Soliyevich, Esonova Klaraxon Mahmamin qizi	
Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	1001
Tojibayeva Nazokatxon	
Sun'iy intellekt yordamida talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	1005
Tojiyev Olimjon Haqberdi o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim tizimi muammo va istiqbollari sotsiologik tadqiqotlar asosida	1008
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1011
Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi	
5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari	1015
Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida	1018
Xoshimova Y. I.	
Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni	1023
Xudoyqulova Aziza Anvar qizi	
Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi	1026
Yuldashov Sherzod Sattorovich	
Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников	1029
Жамолова Зарнигор Баходир кизи	
Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов	1033
Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish	1038
Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi	
Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni	1041
Haydarova Namuna	
Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners	1044
Mohigul Nizomiddinova	
Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish	1049
Soliyeva Maftuna Tirkash qizi	
Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi	1053
Xamrayeva Iroda Sayfullayevna	
Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari	1056
Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi	
Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari	1059
Xolikova Dilobarxon Maxsitovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari	1062
Primkulova Iroda Berdimurodovna	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1067
Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna	
Talabalarining ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish	1071
Esmuratov Muzaffar Elamonovich	

Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi	1076
Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari	1081
Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari	1084
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
Talabalarda divergent tafakkurni rivojlantirish usullari	1091
Adizova Nigora Baxtiyorovna	
Milliy tarbiya tizimida milliy tilning o'rni (jadid pedagoglari qarashlari misolida)	1096
Almuratova Gulbaxor Mansur qizi	
Kompetensiyaviy ishlab chiqarish bo'yicha pedagogika kollejlari o'quvchilarining o'quv-bilish "yaratish" faol modeli	1100
Ashirov Abdurashid Ravshanovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida deontologik madaniyatning tarkibiy qismlari va pedagogik, psixologik tahlili	1106
Axadova Mahliyo Xalimovna	
Scientific and Methodological Foundations of the Development of Universal Competencies of Students..	1109
Bakhtiyor Suvonkulov	
Maktabgacha 5-6 yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning yosh bilan bog'liq xususiyatlari va tarbiyachining mahorati	1113
Daminova Shoxista Farxodovna	
Gospital pedagogika – shifoxona va maktab o'rtasidagi ko'prikdir	1117
Dilmurod Alimov	
Rus tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyati asoslari	1121
Ergashov Ma'murjon Mominjonovich	
Muhandislik ta'limida smart-ta'lim texnologiyalari va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari	1125
G. Sh. Tursunova	
6–7 yoshli bolalarda ikkinchi tilni o'rgatish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish: metodik yondashuvlar	1130
G'aniyeva Shahlo Abduqahhor qizi	
Sun'iy intellekt vositalari orqali bo'lajak o'qituvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish	1138
Inadullayeva Sevara Qahramonovna	
Jadid adabiyotini o'qitishda dekonstruktiv yondashuv va samarali pedagogik strategiyalar	1141
Isabayeva Asida Yusufjonovna	
Kimyo ta'limida natriy va uning birikmalarini o'qitishda pinbord usulining metodik imkoniyatlari.....	1146
Iskandarov Aybek Yuldashevich, Axmedova Nargiza Rustamovna	
Sifat menejmenti zamonaviy menejmentning funksional xarakteristikasi sifatida.....	1149
Jabbarbergenova Bibimariyam Amangeldiyevna	
Development of Speed-Strength Abilities of Qualified Wrestlers in Sports Improvement Groups.....	1155
Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich. Komilov Aziz Xoshimovich	
Odam va hayvonlar fiziologiyasi fanining oliy ta'lim tizimidagi o'rni va didaktik ahamiyati	1160
Kaljanov Damir Maxsetbayevich	
Psychological Preparation of Young Judo Players Before and During Competitions	1165
Komilov Aziz Xoshimovich, Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish	1171
Komilova Farog'at Numonjon qizi	
Tarbiya innovativ metodlarining oilada tutgan o'rni.....	1176
Marimbayeva Bibidona Rinat qizi	
Tibbiyot texnikumi o'quvchilarining mustaqil ishlari orqali kognitiv ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	1180
Matchanova Malika Maxmudovna	
Pedagogik innovatsiyalar va yangi metodologik yondashuvlar: Design Thinking, Project-Based Learning, Problem-Based Learning onlayn shaklda	1183
Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy tayyorgarligi va rivojlanishidagi pedagogik shart-sharoitlar	1187
N. Sh. Djumaniyazova	
Badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlik sifatini rivojlantirishning nazariy asoslari	1190
Nazarova Mohinur Atxam qizi	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi	1195
Nishonova Durdona Olimjon qizi	
Politeknikumlarda "Veb dasturlash" fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	1201
Nuriddinova Gulnigor Taxirjanovna	
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (uchinchi nashri) dagi o'zgarishlar	1205
Otahanova Manzura G'ofurovna	
Sog'lom turmush tarzi vositasida oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy salomatligini pedagogik strategiyalar orqali rivojlantirish metodikasi	1210
Qayumov Shohruh Abduljalol o'g'li, Norqulov Shokir Muzzaffarovich, Karimova Mohinur Abduljalol qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish va chiniqtirish davrida ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini ta'minlash	1214
Qurbonova Asal Dilshod qizi	
O'quvchilarining kreativligini rivojlantirish bosqichlari	1218
Safarova Madina Azamat qizi	
Fizika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	1222
Shag'ataeva Uldanay O'serbay qizi	
Oliy ta'lim tizimida klasterli yondashuvni qo'llash orqali talabalar induktiv va deduktiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish	1227
Shermatova Saxobaxon Rahmonberdi qizi	
Milliy qadriyatlar asosida tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari	1231
Sherov Dilshod Reyimberganovich	
Ta'lim jarayonida o'qituvchilarni baholashda interaktiv va moslashuvchan usullar	1236
Sayfuddinova Kavsar Rahmatulloh qizi	
Nogiron bolalarni tekshirishda psixologik-pedagogik diagnostikaning ahamiyati	1239
Umarova Sabaxon Minavvarovna, Yuldasheva Dilbarxon Turg'unovna	
Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qobiliyatini rivojlantirish	1242
Xalilova Muxlisa Ulug'bek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari	1247
Xayitov Jonibek Xolboboyevich	
Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirishning pedagogik tizimini takomillashtirish	1250
Xudoyberdiyeva Janona Rustamovna	



MAKTABGACHA 5-6 YOSHDAGI BOLALARNI BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISHNING YOSH BILAN BOG'LIQ XUSUSIYATLARI VA TARBIYACHINING MAHORATI



Daminova Shoxista Farxodovna

Jizzax davlat pedagogika universitetining
"Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biri ekanligi, badiiy asarning mazmuni bolaning dunyoqarashini kengaytirishi, maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy asarga qiziqishni shakllantirish, kitobga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalashda kitob burchagining katta roli hamda bu jarayondagi tarbiyachining o'rni va mahorati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: badiiy adabiyot, yosh, xususiyatlar, kitob burchagi, adabiyotlar tanlovi, ertaklar, she'rlar, tabiat kitoblari, o'qish, hikoya qilish, mazmuni bo'yicha suhbatlar.

Abstract: This article discusses the fact that fiction is one of the most important means of comprehensive development of the personality of a preschool child, how the content of a work of art expands the child's worldview, the importance of the book corner in forming interest in fiction in preschool children, the cultivation of a careful attitude toward books, and the role and skills of the educator in this process.

Key words: fiction, age, features, book corner, literature selection, fairy tales, poems, nature books, reading, storytelling, conversations on content.

Аннотация: В данной статье рассматривается, что художественная литература является одним из важнейших средств всестороннего развития личности ребёнка дошкольного возраста. Содержание художественного произведения расширяет кругозор ребёнка, формирует интерес к литературе, воспитывает бережное отношение к книге. Отмечается важная роль книжного уголка в воспитательном процессе, а также значение профессионального мастерства воспитателя в организации работы по приобщению детей к художественной литературе.

Ключевые слова: художественная литература, возраст, особенности, книжный уголок, подбор литературы, сказки, стихи, книги о природе, чтение, пересказ, беседы по содержанию.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi hamda tizimli o'qitishga tayyorlaydi. Bugungi kunda maktabgacha 5–6 yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida tarbiyachilarning oldiga yangicha kasbiy va shaxsiy sifatga ega bo'lish vazifasi qo'yilmoqda. Shunday ekan, tarbiyachilardan bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ularning turli yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashishlari talab etiladi. Shu bilan birga, tarbiyachi adabiy yangiliklardan xabardor bo'lishi, bolalar adabiyotiga ixtisoslashgan nashriyotlarni bilishi, ijodiy yondashuv hamda tarbiyachi sezgisidan foydalanishi kerak. Badiiy adabiyot esa maktabgacha 5–6 yoshdagi bolaning shaxsini har tomonlama rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biridir. Badiiy asarning mazmuni bolaning dunyoqarashini kengaytiradi, uni shaxsiy kuzatishlar doirasidan tashqariga olib chiqadi, uning uchun ijtimoiy voqelikni ochib beradi: odamlarning mehnati va hayoti, buyuk ishlar va jasoratlari, bolalar o'yinlari olamidagi voqealar haqida hikoya qiladi. Badiiy so'z tilning chinakam go'zalligini yaratadi, asarga hissiy rang beradi, tuyg'u va fikrlarni charxlaydi, ta'sir qiladi, hayajonlantiradi, tarbiyalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, badiiy adabiyot jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg'ular hamda o'zaro munosabatlar olamini ochib beradi va tushuntiradi. Kitob va kitob o'qish "yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va san'atimizni yanada rivojlantirish, yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash"^[1] da o'ziga xos o'rin tutadi. Ayni o'rinda shuni ham qayd etish zarurki, kitob "bolalarni qiziqitira olishi, zavqlantirishi, hayratlantirishi, to'qlantirishi kerak"^[2]. Bolalar adabiyotining (bolalar uchun mo'ljallangan badiiy asarlar) eng muhim didaktik ta'sirlaridan yana biri – bolalarda estetik dunyoqarash (estetik ong, his-tuyg'u, did, ideal, sezgi, tasavvur, tafakkur hamda qarash)ni shakllantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Estetik dunyoqarashning shakllanishi hamda rivojlanishi bolalarning hissiy jihatdan kamol topishiga yordam beradi. Hissiyot rivojlanishining eng muhim jihati – bolalarning atrof-dagilarga, borliqqa, tabiatga nisbatan befarq yoki loqayd bo'lmashidir.

Taniqli pedagog V. A. Suxomlinskiy fikricha, "kitob o'qish aqlli, fikrlovchi tarbiyachi uchun bolaning yuragiga yo'l topishga yordam beradigan so'qmoq yo'lga o'xshaydi"^[3]. So'qmoq yo'ldan yurish esa har doim ham oson kechmaydi. Shu sababli bu jarayonni asta-sekin, biroq izchil tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Psixologlarning fikriga ko'ra, bolalarning aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik kamol topishida ikki muhim davr ajralib turadi:

- a) 2 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan davr;
- b) 5 yosh va undan keyingi davr.

Qiziqish bevosita shaxsning atrof-borliqqa bo'lgan ijobiy yoki salbiy mazmundagi munosabatidir. Tadqiqotchilarning^[4] e'tirofiga ko'ra, qiziqish – subyekt va obyekt o'rtasidagi hissiy-anglash mohiyatiga ega munosabat bo'lib, u ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin. A. V. Petrovskiy esa qiziqishni yagona ehtiyoj bilan bog'liq, bilish xarakteridagi kognitiv-motivatsion holat deb hisoblaydi^[5]. Pedagog olim G. I. Shukina^[6] ham qiziqishni shaxsning o'z atrofidagi borliqqa bo'lgan munosabati ekanligini tasdiqlaydi. Psixolog olim S. L. Rubinshteyn^[7] "qiziqish predmetlar bilan tanishish istagini uyg'otishini" ta'kidlaydi. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning yoshga bog'liq xususiyatlari hamda bu jarayonlarda tarbiyachining tutgan o'rni va mahorati muhokama qilinadi. Xususan, har bir yosh bosqichi va unga xos xususiyatlar tavsiflanadi. Maktabgacha ta'lim yoshi bolalarini badiiy asarlar bilan tanishtirishga jalb etishda samarali vaqt hajmi muhim hisoblanadi va ularga badiiy asarlarni o'qib berishning davomiyligi e'tiborga olinadi. Shuningdek, tanlangan asarlarning mohiyatiga ham e'tibor qaratiladi. Shu sababli har bir yosh bosqichida qanday badiiy asarlar o'qib berish lozimligi aniqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarbiyachi badiiy asarni o'qib berayotganda bolalarning yoshiga xos xususiyatlariga katta e'tibor berishi lozim. Agar asar bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qib berilsa, bola obrazlarning siymolarini ko'z oldiga keltirib, tasavvur qila oladi. Har bir yosh bosqichi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashuv bolaga atrof-muhit haqida to'liq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy asarga qiziqishni shakllantirish, kitobga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalashda kitob burchagi katta rol o'ynaydi. Kitob burchagini loyihalashda har bir tarbiyachi individual did va ijodkorligini namoyon qilishi mumkin. Biroq asosiy shart – qulaylik va maqsadga muvofiqlikdir. Kitob burchagi qulay, jozibali bo'lishi, bolaning bo'sh vaqti kitob bilan muloqotga yo'naltirilgan bo'lishi, adabiyotlar tanlovi hamda kitob burchagida tashkil etilgan pedagogik ishlar talablarga mos kelishi, bolalarning yosh xususiyatlari va ehtiyojlari inobatga olinishi kerak. Kichik guruhlarda kitob burchagi bolalarning yoshiga mos holda alohida rasmlar, tematik albomlar, kichik hajmdagi matnli va katta rangli-rasmlar kitoblar bilan boyitiladi.

Tarbiyachi bolalarni kitob bilan mustaqil muloqot qilishga o'rgatadi, ular bilan rasmlarni ko'rib chiqadi, matnni o'qiydi va undan foydalanish qoidalarini haqida suhbatlashadi. O'rta guruhda yil boshidan bolalar ishtirokida kitob burchagi tashkil etilib, u yangi ertaklar, she'rlar, tabiat haqidagi kitoblar bilan to'ldiriladi. Tarbiyachi bolalarning e'tiborini kitoblarga, rasmlarga, syujet va voqealar ketma-ketligiga qaratadi. Kitoblar haqida suhbatlar o'tkaziladi, uyda bolalarga o'qiladigan adabiy asarlar haqida so'z yuritiladi. Bolalarda kitobga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishning barqaror ko'nikmalari shakllanadi. Katta va maktabga tayyorlov guruhlarida janr va mavzular xilma-xilligi tufayli kitob burchagining mazmuni yanada boyib boradi. Bolalarning adabiy rivojlanishida ro'y berayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda badiiy adabiyotlar ro'yxati turli mualliflar, mavzular va janrlar, shuningdek, bolalar jurnallari bilan kengaytiriladi. Bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish – o'qish, hikoya qilish, mazmuni bo'yicha suhbatlashish, rasmlarni tahlil qilish – ularning barchasi badiiy asar voqealari va qahramonlariga nisbatan hissiy munosabatni rivojlantiradi.



Kitob tanlashda quyidagi fazilatlarga e'tibor berish lozim:

- kitob rasmlarga, go'zallikka, hazil va fantaziyaga boy bo'lishi;
- kitob bolaning yoshi va qobiliyatiga mos kelishi;
- kitob bolaga yoqimli bo'lishi;
- unda hissiy ta'sir kuchi mavjudligi;
- shuningdek, kitob yaxshi yozilgan bo'lishi kerak.

Bolalarning yoshiga mos holatda badiiy asardagi rasmlarni va qahramonlarning xatti-harakatlarini ta'riflashga, tanish narsalarni nomlashga undab, tarbiyachining iltimosiga binoan ularni ko'rsatish, ularga savollar berishga o'rgatish lozim: "Bu kim (nima)?", "Nima qilyapti?". Bolalarga oddiy syujetli rasmlarning mazmunini qayta aytib berish, qahramonlarning harakatlarini takrorlashni taklif etish ("Qushlar donni qanday yutishini, bola qanday suv ichishini ko'rsating"). Mustaqil faoliyatga tayyorlash – badiiy asardan syujetlarni sahnalashtirish, teatrlashtirilgan o'yinlar, ertaklarni dramatizatsiya qilish, qahramonlar va asar syujetlaridan foydalangan holda ijodiy o'yinlar tashkil etish bolalarni asar qahramoniga aylantiradi. Bu usul nafaqat hamdardlikni rivojlantiradi, balki asarning axloqiy saboqlarini tushunish, nafaqat qahramonlar, balki atrofdagi insonlarning harakatlariga ham baho berish ko'nikmasini shakllantiradi.

Maktabgacha davrdagi har bir yosh bosqichi o'zining nutqiy rivojlantirish vazifalariga ega. Yosh o'sib borishi bilan badiiy asarlarni qabul qilish darajasi ham ortib boradi, shu sababli ular asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Bolalarda she'r tinglay olish qobiliyati rivojlanadi. Shu bois kattalar bolalarning yosh imkoniyatlarini bilishlari zarur. Ilk yoshdagi bolalarning badiiy asarlarni qabul qilishining asosi – ularga nisbatan emotsional javob, turli ohanglarni ilg'ab olish, ularga munosabat bildirish, imkon darajasida adabiy asarlar qahramonlarini tanib olish va ular haqida qayg'urishdir. Ushbu yoshdagi bolalar uchun kichik shakldagi she'riyat, ya'ni folklor va mualliflik she'riyati muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bolalarga bosh qahramonlari bolalar yoki hayvonlar bo'lgan, o'yinli va maishiy vaziyatlar bayon qilingan asarlar juda qiziqarlidir. Bola kattalar bilan birgalikda matallar va sanoq she'rlari syujetlari asosida ishtiyiq bilan o'yinlar tashkil qiladi, u tovush taqlidlariga va folklor yo'nalishidagi birmaromdagi takrorlashlarga quloq tutadi hamda ularga taqlid qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bola adabiy asarlarda bayon qilingan voqealarni juda jiddiy qabul qiladi. O'ziga yoqib qolgan asarni bir necha marta eshitishga ham tayyor bo'ladi. U o'ziga yoqqan qahramonlarini illyustratsiyalar va o'yinchoqlarda xursand bo'lib tanib oladi, har gal asarning baxtli yakunini hayajon bilan kutgan holda syujet harakatlarining odatdagi ketma-ketligini sinchkovlik bilan kuzatib boradi. Kichiktoylarga mo'ljallangan badiiy asarlar soni unchalik ko'p emas. Shu bois ular ko'p marotaba takror jaranglashi, bolaning kundalik hayotiga kirib borishi va unda badiiy asarni his qilishning birlamchi asoslarini shakllantirishi lozim. Ilk yoshdagi bolalarga o'qib beriladigan asarlar doirasini, asosan, o'zbek folklori asarlari tashkil qiladi. Ular eng yaxshi tarzda ilk yoshdagi bolalar ehtiyojlariga mos keladi, chunki ular so'z, ohang, musiqa va harakatni o'zida mujassam etgan. Bolalar hayvonlar haqidagi xalq ertaklari bilan tanishadilar: "Sholg'om", "Bo'g'irsoq", "Uycha", "Chipor tovuq" va boshqalar.

Bolalar bog'chasi va ota-onalarning vazifalari bolaga so'z san'ati olamini ochish, kitobga qiziqish va mehnatni, uni tinglash va tushunishni, xayoliy voqealarga emotsional munosabat bildirishni, qahramonlar haqida qayg'urish va "ularga yordamlashish" hissini tarbiyalash, ya'ni bolalarni badiiy rivojlantirish, ularni bo'lajak o'quvchilar sifatida shakllantirish; hikoyani tinglash va tengdoshlari bilan birgalikda o'qish qobiliyatini shakllantirish; bolalarga she'r matniga mos keluvchi o'yin harakatlarini bajarishni o'rgatish; bolalarda xalq asarlari, she'rlar, qo'shiqlar ohangdorligi va musiqiylikiga nisbatan emotsional munosabatni shakllantirish; bolalarga adabiy asarlar ko'p martalab o'qilganida va hikoya qilinganida ularning qahramonlarini tanib olishda yordamlashish; bolani she'rlar va ertaklardan ayrim so'zlar hamda ifodalarni takrorlashga rag'batlantirish, illyustratsiyalarni ko'zdan kechirishni, ulardan adabiy asarlar qahramonlarini tanib olishni va illyustratsiya mazmuni bo'yicha oddiy savollarga javob berishni o'rgatish (Masalan: "Kim bu?", "Quyoning quloqlari qani?", "U nima qilayapti?", "Sichqon qani?" va h.k.); bolalarga dastlab ko'rgazmali asosda (suratlar, o'yinchoqlar, harakatlar), so'ngra esa ko'rgazmasiz taqdim etilayotgan qisqa she'rlar va ertaklardagi harakatlar rivojini kuzatib borishni o'rgatish; bolani ilk yoshdagi bolalar uchun maxsus chop etilgan (rang-barang, yirik suratli, muqovasi qattiq va yuviladigan) kitoblardan mustaqil ravishda foydalanishga undash lozim.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish bolalarda adabiy asarlarni estetik qabul qilish qobiliyati va mahoratini tarbiyalash, ularda badiiy-nutqiy faoliyatni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Quyidagi pedagogik tamoyillarga asoslangan adabiy asarlarni to'g'ri tanlash bolalarga "og'zaki san'at" dunyosini ochishga yordam beradi: adabiyot bolalarni tarbiyalash (intellektual, estetik, axloqiy) maqsadlariga javob berishi kerak, aks holda u



o'zining pedagogik qiymatini yo'qotadi. Kitob aniq tasvirlarda maktabgacha yoshdagi bolalarga ezgulik, adolat, mardlik g'oyalari ochib berish, odamlarga, o'ziga, o'z harakatlariga to'g'ri munosabatni shakllantirishga xizmat qilishi lozim; bolalarning yoshini hisobga olish zarur. Yoshning o'ziga xosligi bola psixikasining xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, fikrlashning konkretligi, ta'sirchanligi va zaifligida namoyon bo'lishi kerak; kitob qiziqarli bo'lishi kerak; kitobda muallifning pozitsiyasi aniq ifodalanishi lozim; kitoblar kompozitsion yengilligi bilan farq qilishi, ya'ni bitta hikoya chizig'iga ega bo'lishi kerak.

XULOSA

Badiiy obraz yoki obrazlar tizimi bir fikrni ochib berishga xizmat qilishi, qahramonlarning barcha harakatlari esa shu fikrning ifodalanishiga bo'ysunishi kerak. Shunday qilib, ezgulik va yovuzlik, haqiqat va yolg'on, ishq va nafrat, xohish va burch o'rtasidagi axloqiy tanlovlarning cheksiz oqimida biz o'sib kelayotgan avlodni ma'naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga intilamiz. Bu fazilatlar bolalarning go'zal va munosib hayot kechirishlariga yordam beradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, badiiy adabiyotdan xulq-atvorni o'rganish vositasi sifatida foydalanar ekan, tarbiyachi insoniy tuyg'ular va axloqiy g'oyalarni shakllantirish uchun asarlarni to'g'ri tanlay olishi hamda ular asosida badiiy suhbatlar o'tkazishga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S. Sayyid. Kitobsiz kelajak yo'q. // <http://uza.uz/oz/sociyety/kitobsiz-kelajak-y-16-01-2017>.
2. M. Sobirova. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish. Metodik ko'rsatma. – Namangan, 2019. – B. 44.
3. V. A. Suxomlinskiy. Serdtse otdayu detyam. – Minsk: Narodnaya asveta, 2001. – 341 s.
4. V. A. Slastenin, I. F. Isayev, Y. N. Shiyanov. Pedagogika. Ucheb. posobiye dlya stud. vyssh. ped. ucheb. zav. – M.: Izdatel'skiy tsentr "Akademiya", 2002. – S. 20.
5. A. V. Petrovskiy. Obshchaya psixologiya. Ucheb. dlya stud. ped. in-tov. – 2-e izd., dop. i pererab. – M.: Prosveshcheniye, 1996. – S. 195.
6. G. I. Shchukina. Aktualniye voprosy formirovaniya interesa v obuchenii. – M.: Sfera, 2004. – 112 s.
7. Rubinshteyn L. S. Osnovy obshchey psixologii. – 2-e izdaniye. – SPb.: Piter, 2009. – S. 186–525.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.